

SAYLOV QONUNCHILIGI XALQ FAROVONLIGINI YUKSALTIRISHNING MUHIM VOSITASI.

Norqo 'ziyev Sarvar Anvar o'gli JDPI,

Tarix fakulteti tarix o'qitish metodikasi 203-guruh talabasi

Telefon: +998904944323

Annotatsiya. O'zbekiston Respublikasi Saylov qonunchiligidagi 2019-yilda qabul qilingan saylov kodeksi va 2021-yildagi saylov kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlar bayon etilgan.

Kalit sózlar: Saylov, qonun, partiya, Saylov kodeksi, saylovchilar, nomzodlar, parlament.

Аннотация. Избирательный кодекс Республики Узбекистан содержит изменения в Избирательный кодекс, принятый в 2019 году, и в Избирательный кодекс 2021 года.

Ключевые слова: Вьборь, закон, партия, избирательном кодекси, избиратели, кандидаты, парламент.

Annotation. The Electoral Code of the Republic of Uzbekistan contains the amendments to the Electoral Code adopted in 2019 and the Electoral Code 2021.

Key words: Election, law, party, election code, voters, candidates, parliament.

Saylov – davlat va jamiyat hayotida muhim siyosiy voqea bólib davlatni rivojlantirish, xalq farovonligini yuksaltirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Shu bois saylovlarning ochiq-oshkora va shaffof tarzda ótishida huquqiy asoslarning hayotiy va xalqchil tarzda ishlab chiqilishi katta ahamiyatga ega. Fuqarolarning óz saylov huquqini amalga oshirishi – ularning davlatni boshqarishda ishtirok etishining eng muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Saylov ótkazish tartibi va qoidalari, odatda, har bir davlatning konstitutsiyasi va boshqa konstitutsiyaviy huquqiy hujjatlarda belgilanadi. Saylov turli kórinishda bólad. Unda aholi qatnashishi yoki ularning vakillarigina ishtirok etishi mumkin. Saylov ochiq va yashirin ovoz berish yóli bilan ótkaziladi.

Qaysi organ saylanayotganligiga qarab parlamentga yoki prezidentlikka saylov, parlamentning umumiy yoki bir qismi uchun saylov o'tkazilishiga qarab yalpi yoki qisman saylov bo'lishi mumkin. Masalan: (O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan, mamlakat Prezident saylovi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqolpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengashiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishli) ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda dekabr oyi uchinchi o'n kunligining 1-yakshanbasida o'tkaziladi. Saylovlar umumiy, teng, to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi.) (Saylov huquqi Toshkent 2016 y) Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston saylov qonunchiligi 2016 yilgacha bo'lib o'tgan saylovlar davomida to'plangan milliy tajriba, ilg'or xorijiy saylov amaliyoti, shuningdek, xalqaro standartlar, fuqaro-larning siyosiy ongi hamda elektoral madaniyatining o'sishi, amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning borishi va talablarini hisobga olgan holda jadal takomillashib bormoqda.

Shu orinda yangi O'zbekiston saylov qonunchiligi rivojlanishining alohida bir bosqichini ajratib ko'rsatishimiz mumkin (alohida saylov qonunlaridan Saylov kodeksi sari) Qonunchilikni kodifikatsiya qilish masalasi tizimli ravishda yagona me'yoriy-huquqiy hujjatlarni yaratish va amaldagi qonunchilikni chuqur hamda har tomonlama qayta ko'rib chiqish barobarida, eskirgan normativ-huquqiy hujjatlarni bekor qilish, yangi huquqiy qoidalarni ishlab chiqish va milliy huquqiy tizimni kompleks ravishda rivojlantirishni talab etadi. Xususan, xorijiy davlatlarda saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish tartibi oddiy qonunlar konstitutsiyaviy qonunlar yoki saylov kodekslarini qabul qilish yo'li bilan tartibga solinadi. Shu bilan birga, dunyoning 30 dan ziyod mamlakatlarida saylovlarni Saylov kodeksi yordamida huquqiy tartibga solish modeli qo'llaniladi. Yangi O'zbekiston ham saylov qonunchiligini kodifikatsiya qilish yo'lini tanladi. 2019 yilda ilgari tarqoq bo'lgan beshta saylovga oid qonun orniga yagona Saylov kodeksi qabul qilindi. Mazkur kodeks mamlakatning barcha siyosiy kuchlari hamda partiyalari, fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokida umumxalq muhokamasi asosida

ishlab chiqildi. Unda YEXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bóyicha byurosi hamda Yevropa Kengashining Venetsiya komissiyasi, chet ellik kuzatuvchilar, SHHT, MDH, IHT kabi bir qator xalqaro tashkilotlar missiyalarining Ózbekistonda ótgan saylovlar bóyicha tavsiyalari hisobga olingan. Xususan, 2016-2019 – yillarda Ózbekistonda bólib ótgan – saylovlar bóyicha byurosining 29 ta tavsiyasi Ózbekiston saylov qonunchiligida tóliq, sakkiztasi qisman bajarilgan.

Saylov kodeksining qabul qilinishi, óz navbatida, yangi Ózbekistonni demokratlashtirish va liberallashtirish, fikrlar xilma - xilligini qóllab -quvvatlash hamda kóp partiyaviylik yólidan barqaror rivojlanish ifodasi sifatida namoyon bóldi. Saylov kodeksining eng muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat:birinchi xususiyati, milliy saylov qonunchiligida parlamentning kamida bitta palatasi a'zolarini tóg'ridan tóg'ri saylashni nazarda tutuvchi saylovlar tóg'risidagi xalqaro hujjatlarning asosiy qoidalari óz aksini topdi. Qonunchilik palatasidagi deputatlik órinlari sonini saqlab qolgan holda (150), parlament quyi palatasi uchun Ózbekiston Ekologik harakatidan deputatlikka nomzodlarni kórsatish va saylash talablari qonunchilikdan chiqarib tashlandi;

Ikkinchi xususiyati, saylovchilarga saylovlarda bir nechta partiyalarning ishtirok etishini qóllab-quvvatlash imkoniyati berildi - saylovchilar bir yoki bir nechta siyosiy partiyalarni qóllab-quvvatlab imzo qóyish huquqiga ega ekanligi belgilanadi;

Uchinchi xususiyat, siyosiy partiyalar Prezidentlikka va Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod kórsatish huquqiga ega ekanligi qonuniy ravishda belgilab qóyildi.Shu bilan birga, siyosiy partiyalar óz partiyasi a'zosini yoki partiyasizlarni nomzod sifatida kórsatish huquqiga ham ega;

Tórtinchi xususiyati, katta jamoat xavfini tug'dirmaydigan va uncha og'ir bólmagan jinoyatlarni sodir etgani uchun ozodlikdan mahrum qilish joylarida jazoni ótayotgan shaxslarning saylovlarda ishtirokini cheklovchi qoida chiqarib tashlandi;

Beshinchi xususiyati, siyosiy partiyalardan nomzodlarning ishonchli vakillari soni kópaytirildi (Prezidentlikka nomzodlar uchun - 15 tagacha, parlament deputatlari - 10, xalq deputatlari - 5,tuman shahar Kengashlari - 3);

Oltinchi xususiyati, qonun darajasida Senat a'zolarini saylash tartibi belgilanib, Markaziy saylov komissiyasining ularni saylash tartibi tóg'risidagi Nizomi bekor qilindi;

Yettinchi xususiyati, Saylov kodeksida siyosiy partiyalar va ularning nomzodlari tomonidan olib borilayotgan tashviqot turlari, shakllari hamda usullari aniq belgilab qóyildi;

Sakkizinchi xususiyati, saylovchilar - fuqarolarning doimiy va vaqtincha yashash joylari tóg'risidagi ma'lumotlarni óz ichiga olgan davlat axboroti resursi bólgan Ózbekiston Respublikasining yagona elektron saylovchilar róyxati yaratilishi nazarda tutilgan...

Tóqqizinchi xususiyati, kuzatuvchilar, partiyalarning vakolati vakillari va ommaviy axborot vositalariga alohida e'tibor berilgan. Saylov kodeksi yuqoridagi saylov jarayoni ishtirokchilarining huquqlari doirasini belgilab qóydi. Ularning ishtiroki tufayli saylov jarayonining shaffofligi ta'minlanadi. Saylov komissiyasining majlislarida siyosiy partiyalar, ommaviy axborot vositalari vakillari, fuqarolarning ózini ózi boshqarish organlari, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarning kuzatuvchilari ishtirok etishlari mumkin.

2021-yil 8-fevral kuni qabul qilingan "Saylov qonunchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan Ózbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga ózgartirish va qóshimchalar kiritish tóg'risida" gi qonunga binoan saylovlar oktabr oyida ótkazilishi belgilandi.Ya'ni Prezidentlikka saylov, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jóqorg'i Kengashga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishlicha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda oktabr oyi uchinchi ón kunligining birinchi yakshanbasida ótkazilishi belgilandi(Saylov huquqi.Tosh.2016)

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yaqinda bólib ótgan navbatdagi majlisida kórib chiqilgan "Ózbekiston Respublikasining Saylov kodeksiga ózgartirish va qóshimchalar kiritish tóg'risida"gi qonun loyihasini tayyorlash jarayonida bir qator jihatlariga e'tibor qaratildi. Qonun loyihasining muhim xususiyati shundaki, loyihani

ishlab chiqish davomida kóplab ilg'or demokratik davkatlar saylov qonunchiligi órganilib, milliy qonunchilik tahlili asosida uni yanada takomillashtirish yuzasidan huquqshunos olimlar va mutaxassislar fikrlari tóplandi. Shu órinda tabiiy savol tug'iladi. Ushbu loyiha bilan saylov qonunchiligida qanday ózgarishlar bólyapti? Masalan, Saylov kodeksining 11 ta moddasiga ózgartirsh va qóshimchalar kiritilmoqda. Jumladan, 14, 20,22, 101 va 102-moddalarida yuqori turuvchi saylov komissiyalarining vakolatlaridan quyi turuvchi saylov komissiyalarining harakatlari va qarorlari ustidan berilgan shikoyatlarni kórib chiqishni chiqarib tashlash nazarda tutilmoqda, 21 - moddada Ózbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini ótkazish bóyicha okrug saylov komissiyasi komissiya raisi, rais órinbosari, kotibi va ón bir -ón sakkiz nafar komissiya a'zosidan iboray tarkibda tuzilishini belgilash kózda tutilyapti, 31-moddadan saylov byulletenida nomzodning egallab turgan lavozimi, ish joyi kórsatilishi haqidagi normani chiqarib tashlash nazarda tutilayotgan bólsa, 38-moddada saylovlarda siyosiy partiya yoki nomzolari qóllab-quvvatlab imzo qóyishda fuqarolar pasport bilan bir qatorda identifikatsiya kartasi orqali ham shaxsini tasdiqlashi mumkinligi belgilanayapti.

Xulosa qilib aytganda, 2019-yilda hokimyat vakillariga bólib ótgan saylovkar davomida Saylov kodeksini amalda qóllash shuni kórsatdiki, u fuqarolarning konstitutsiyaviy saylov huquqlarini qa'tiy ravishda demokratik adolat, oshkoralik, ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida saylovlarda erkin ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berishga xizmat qildi. Joriy yil oktabr oyida bólib ótadigan Ózbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bu yil yangi milliy saylov qonunchiligi, umume'tirof etilgan xalqaro standartlarga mos, demokratik tamoyillar asosida, shaffof va butunlay yangi sharoitda ótishiga iwonaman.Buning uchun Ózbekistonda keng imkoniyatlar yatatilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Turg'unov O.K. Saylov huquqi. Toshkent. 2016 yil
2. ÓzME. Birinchi jild. Toshkent. 2000 yil
3. Ózbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.